

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08. RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PARDAYEVA MARHABO DAVLATOVNA

**ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA NAQSHBANDIYA
TA'LIMOTI MAZMUN-MOHIYATIGA OID G'OYALAR**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Пардаева Мархабо Давлатовна

Alisher Navoiy ma’naviy merosida Naqshbandiya ta’limoti

mazmun-mohiyatiga oid g‘oyalar.....3

Пардаева Мархабо Давлатовна

Представления о сущности учения нақшбандия в духовном наследии

Алишера Навои.....31

Pardaeva Markhabo Davlatovna

Ideas on the essence of the naqshbandiya teaching in the spiritual heritage of

Alisher Navoi.....63

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of works published69

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08. RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PARDAYEVA MARHABO DAVLATOVNA

**ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA NAQSHBANDIYA
TA'LIMOTI MAZMUN-MOHIYATIGA OID G'OYALAR**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2022.3.DSc/Fal139 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Navro'zova Gulchexra Ne'matovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Mahmudova Guli Tilabovna
falsafa fanlari doktori, professor

Isaqova Zamira Ruhitdinovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil "25" dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (400 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "13" dekabr kuni tarqatildi.
(2023 yil "13" dekabr dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Shadmanov K.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

(Handwritten signature)

Sharipova O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida kuzatilayotgan geosiyosiy ziddiyat va to‘qnashuvlar, ayrim mamlakatlarda ko‘zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlari dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etishni talab etmoqda. Jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma‘rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan ulug‘ alloma va mutafakkirlar, buyuk olimlarning boy merosini tadqiq etish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish har qachongidan-da ko‘proq kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ayniqsa, Alisher Navoiy falsafiy-irfoniy dunyoqarashidagi naqshbandiya ta‘limotiga xos g‘oyalar, uning “inson qadri” fenomenidagi sinkretik xususiyatlari, gumanistik g‘oyalarining diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasi hamda bag‘rikenglik madaniyati, milliy qadriyatlar rivojidadagi sinkretiklik xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida millatlar va dinlararo munosabatlarni yaxshilash, milliy barqarorlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikka tahdid soluvchi g‘oya va konsepsiyalarni bartaraf etishning tarixiy tajribalarini transformatsiya qilishga oid fundamental va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berishda o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lgan Naqshbandiya tariqati g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Alisher Navoiy faoliyatida naqshbandiylik ta‘limoti rivoji, tariqat g‘oyalarining milliy-diniy qadriyatlarga sinkretlashuvidagi o‘rnini umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlikda tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalashda buyuk allomalarimiz, pir-u murshidlarimiz merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, ularning zamon ruhiga mos g‘oyalaridan ma‘rifatli shaxslarni tarbiyalashga oid islohotlar olib borilmoqda. “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma‘naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur”¹. Shu jihatdan, naqshbandiya tariqatining insonparvarlik maqsadlarga yo‘naltirilgan g‘oyalari negizida shakllangan Alisher Navoiy ilmiy-ijodiy merosi, uning milliy-diniy qadriyatlarining va sinkretiklik xususiyatlari, insonni komillikka undovchi g‘oyalarining yoshlarni ijtimoiy faol bo‘lish, kasb-hunar egallash, sobit e‘tiqodli, qat‘iyatli bo‘lishida va falsafiy mushohadasining kengayishidagi axloqiy-tarbiyaviy rolini hamda irfoniy-axloqiy qarashlarining naqshbandiya ta‘limoti rivojidadagi konstruktiv ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2022. – Б. 223.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Mutafakkir Alisher Navoiyning gumanistik merosi dunyo olimlari va soha mutaxassislarini barcha davrlarda qiziqtirib kelgan. Xususan, xorijlik sharqshunos, adabiyotshunos olimlar M.Nikitskiy, turkiyalik olim A.Vaqif, Ajbeg, A.Hikmet, N.Vei, fransiyalik sharqshunoslar S.Sasi, L.Buvay, olmoniyalik sharqshunos V.Baft, K.Ekman, V. Xinz, H.Vamberi, A.SHakirzoda, A.Levend, ingliz olimlari E.Gibb, H.Prugshtal, P.Kortelli, kanadalik G.Dikk, eronlik N.L.Amirlarning metodologik ahamiyatga molik ishlari diqqatga sazovor.

Yurgen Paulning “Bahouddin Naqshbanddan keyingi xojagon-naqshbandiya ta‘limoti”, Dr.Metin Akkushning “Tarixiy va adabiy shaxsiyat o‘laroq, Navoiy

² Qarang: Никитский М. “Эмиръ-Низам-эд-Динъ Али-Шир в государственном и литературном его значении”. – СПб: - 1856.; Ahmed-Vefik-Efendiet de Be 1 in. Mahbub-ul-kulub. Publi, dans le texte original. - Constantinople, 1872-1873./ Journal Asiatique. T 7, 8. Ajbegf. Ali Cher Navoi. Kfouskou, 1948. Ali Asohar Hekmet. The Magolis-un Nafais Mir Ali Shir Navai. Teheran, 1945. Levend A.S. Ali Shir Navoi. I Gilt. Ankara, 1965. Vambery H. Die primitive Kultur der Turko-Tatarischen Volker. Leipzig, 1879. Hinz W. Herat unter Husein Baigaradem Timuriden (Abhandlungenfür Kunde des Marqenlanas. Bd. 28) «Leipzig» 1938. Hammer-Purgstall. Arabisehe, persisehe und türkische Handschriften. Wien, 1840. Courteille P. Mémoires de Bateer (Zahir-et-Din Shammed) Fondateur de la dunastiemongoledans Hindostan. Paris, 1871. Nematli Limai, Amir (2015), Analysis of the Political life of Amir Alishir Navai and Exploring his Cultural, Scientific, Social and Economic Works, Tehran & Mashhad: MFA (Cire) & Ferdowsi University. – P. 56-59.; Shuningdek, dissertatsiya mavzusiga doir xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <http://www.azhar.edu.eg/en/>; <https://www.nottingham.edu.my/index.aspx>; <https://khalilcenter.com/ramadan>; <https://www.timeshighereducation.com/world-universityrankings/sorbonne-university> kabi elektron resurslar manbalari asosida tayyorlandi

asarlarida inson masalasi” xususidagi risolalari, rus olimi A.Knish, G.Eskarxanov, Eronlik Muhammad Amin Riyohi tadqiqotlari Alisher Navoiy merosiga oid tarixiy, madaniy, falsafiy va filologik tadqiqotlar bo‘lib, o‘ziga xos metodologik ahamiyat kasb etadi. Germaniyada nashr etilgan “Encyclopedia of Islam” 3 tomlik lug‘at, Rossiyada nashr etilgan “Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритц Майера” to‘plamlari naqshbandiya tariqati va uning tarixiy, ilmiy va diniy-falsafiy mohiyatini ochib berishga qaratilganligi bilan muhimdir. R.Nikolson, S.Ernst, T.Husayn, S.Nafisiy, A.Mets, I.Yu.Krachkovskiy, B.Furo‘zonfar, Ye.E.Bertels, J.Nurbaxsh, A.Kudelinlarning monografik tadqiqotlarida mavzuga oid nazariy muammolar, umumlashma va xulosalar o‘z ifodasini topgan³.

Shuningdek, naqshbandiya va Alisher Navoiy ma’naviy merosi, tasavvuf hamda tariqatlar tarixi bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Centre International investergate of Oxford University, School of Culture, religions and politicly in Asia (Buyuk Britaniya), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Germaniya), Islamic Supreme Council of Amerika, (ISCA-Amerika Islom Oliy Kengashi), Al-Azhar university (Misr, Qohira), Sankt-Peterburg davlat universiteti (RF), The George Washington University, Centre of scientific investigation of Central Asia (AQSH), University of Western Ontario (Kanada), Institute of Central Asia (Fransiya), Institute of International relation (Shvetsiya), Disle university (Turkiya), shuningdek, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) tomonidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi tadqiqotlarni inobatga olgan holda o‘zbekistonlik va xorijlik tadqiqotchilarning naqshbandiya ta’limoti, Alisher Navoiy merosida naqshbandiylik g‘oyalarning ildizlari va namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiqi borasida amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar mazkur muammoning kelgusida kengroq va chuqurroq o‘rganilishi uchun zamin yaratilishiga xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Alisher Navoiyning adabiy-ma’naviy merosi, so‘fiyona qarashlari xorijiy adabiyotshunos, tarixchi, faylasuf, tasavvufshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mutafakkirning tasavvuf adabiyotiga qo‘shgan hissasi, naqshbandiylik tariqatiga ixlosi va uning g‘oyalari, tamoyillarini targ‘ibotchisi sifatida jumladan, sharqshunos olimlar Ye.E.Bertels, M.T.Stepanyans, A.D.Knish, A.A.Xismatullin, Zigrid Klaynmixel monografiyalari muammo doirasidagi masalalar yechimida muhim metodologik asos bo‘ldi⁴.

³ Nicholson R.A. A Literary History of the Arabs. London, 1903; Ernst C. W. Teachings of Sufism. – London, 1999. – 216 p.; Мец А. Мусульманский Ренессанс. – Москва: Наука, 1973. – 242 б; Крачковский И.Ю. Избранные труды. Т. 1–5. – М. – Л. 1956–1960. – 348 с.; Бертельс Е.Э. Навоий. Монография. /Таржимон. И.К.Мирзаев. – Тошкент: “Тафаккур қаноти”, 2015. 216-б. Бертельс Е.Э. Наваи и Джами. Избранные труды. Т.3. – Москва: Наука, 1965. – 272 с; Нурбахш Дж. Иисус глазами суфиев. – Москва: Мистика, 2002. – 246 с; Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи. – Москва: Языки славянской культуры, 2003. – 196 с.

⁴ Бертельс Е. Суфизм и суфийская литература. – Т., 3. – Москва, Наука, 1965. – 527 с; Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. – М.: Наука, 1987. – С. 46.; Кньш А.Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. Москва – Санкт-Петербург. “Диля”, 2004. –Б. 192-193. Хисматулин А. А. Суфизм в Центральный Азии. – Санкт-Петербург, 2001. – С. 163.; Клайнмixel З. «Яна ва яна Навоий ижодига қайтаман» (сухбатдош Б.Каримов) // Жаҳон адабиёти. № 12, 2012. – Б. 127-131.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida Yusuf Jolandan Mansur, S.Maxmadullaev, Z.Nabotov, A.Muxamedxodjaev, H.Islomiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Alisher Navoiy ilmiy merosining tasavvuf ta'limotida tutgan o'rnini ochib berishda tarixiy ahamiyat kasb etadi⁵.

Mamlakatimizda O.Bo'riyev, E.Karimov, G.Navro'zova, A.Huseynova, J.Xolmo'minov, O.Sharipova, N.Safarova, B.Namozov, Sh.Agzamxodjayeva, T.Norov, Z.Ishoqovalarning ilmiy ishlari naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, Alisher Navoiy ta'limotining falsafiy xususiyatlari, nazariy-metodologik masalalariga bag'ishlanganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq⁶.

Tadqiqot ishida yuqorida nomlari qayd etilgan xorijlik va mahalliy olimlarning falsafiy mazmundagi ilmiy tahlillari e'tiborga olindi. Umuman tasavvuf, alohida tariqatlarning irfoniy, falsafiy, aksiologik jihatlarining tadqiq etilganligi, Alisher Navoiy ma'naviy merosida naqshbandiylik g'oyalarining namoyon bo'lish xususiyatlari, ularning milliy, diniy qadriyatlar integratsiyasidagi o'rni, naqshbandiyona gumanistik qarashlari yaxlit tadqiq qilinmaganligi sababli, muammoni ilmiy-nazariy, metodologik jihatdan uyg'unlashtirish, naqshbandiylik va navoiyshunoslik an'alarini hisobga olish taqozo etiladi. Mazkur dissertatsiyada ana shu xususiyatlarni inobatga olgan holda Alisher Navoiy dunyoqarashining naqshbandiyona ildizlarini o'rganish, Alisher Navoiy va Bahouddin Naqshband qarashlari sinkretik xususiyatlarining ilmiy-falsafiy tadqiqiga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

⁵ Юсефи Джонландан Мансур. Мазары Хорасана и Мавераннахра эпохи Тимуридов: XIV-XV вв. Автореферат дисс. на соискание ученой степени канд. ис.наук. – Душанбе, 2009. – 26 с.; Махмадулаев С. О некоторых этических точках зрения Якуба Чархи. Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – Душанбе, 2015. – С. 34.; Наботов З. Проблема человека в Накшбандизме. – Душанбе, 2002. – 125 с.; Мухаммадходжаев А. Идеология накшбандизма. – Душанбе: Дониш, 1991. – 234 с.; Исламий Х. Алишер Навоий ва Хоразм авлиёлари. – Т.: Фан, 1998. – 66 б.

⁶ Бўриев О. Хожа Алоуддин Аттор. – Т.: Маънавият, 1994. – 23 б.; Каримов Э. Роль, место и социальные позиции духовенства Мавераннахра в XV в. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т., 1990. – 159 с.; Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. – 244 б.; Хусейнова А. Шарк мутафаккирлари дунёкарашида умуминсоний қадриятлар. Монография. – Т.: Paradigma, 2017. – Б. 136.; Холмўминов Ж. Нақшбандия таълимоти ва Марказий Осиё халқлари маънавий бирлиги. – Т.: Yangi Nashr, 2018. – 28 б.; Шарипова О. Абдулоҳиқ Гиждувоний. Монография. – Бухоро: Бухоро нашр, 2020. – 156 б.; Сафарова Н. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи. Фалсафа фанл.номз. дисс. – Тошкент, 2002. – 152 б.; Намозов Б. Муҳаммад Порсонинг фалсафий таълимоти. Монография. – Тошкент: Мумтоз, 2015. – Б. 301.; Ш.Агзамходжаева. Алишер Навоий асарларида инсон концепцияси. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2022. – Б. 78. Исҳоқова З. Тасаввуф таълимотида орифлик ва валийлик талқини. Монография. – Т.: Ави matbuot-konsalt, 2011. – 296 б. Норов Т. Алишер Навоий онтологик қарашларининг фалсафий-концептуал таҳлили. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Самарқанд. 2022. – Б. 71

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiy ma'naviy merosida naqshbandiya ta'limoti mazmun-mohiyatiga oid g'oyalarning falsafiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Alisher Navoiy dunyoqarashining naqshbandiyona ildizlarini o'rganishning nazariy-metodologik masalalarini tadqiq qilish;

Alisher Navoiy falsafiy-irfoniy qarashlarida tariqat tushunchalari va tamoyillarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish;

Alisher Navoiyning Bahouddin Naqshband shaxsiyatiga munosabati va uning "xoriqulodda odatlari" xususidagi qarashlarini tahlil qilish;

Naqshbandiya ta'limotidagi ontologik va gnoseologik masalalarning Alisher Navoiy falsafiy-irfoniy qarashlaridagi xususiyatlarini ochib berish;

Alisher Navoiy ma'naviy merosida naqshbandiylikning "halol luqma", "faol hayot tarzi" va "kasb-hunar egallash"ga oid tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etish;

Alisher Navoiyning ilm va amal, irfon va ma'rifat xususidagi qarashlarining naqshbandiya tariqatining "Dil ba Yor-u, dast ba kor" tamoyiliga uyg'unligini asoslab berish;

Alisher Navoiy qarashlaridagi "odamiylik" tushunchasining "ma'rifatli inson", "ma'naviyatli shaxs", "komil inson" tushunchalariga uyg'unligini asoslash va uning naqshbandiyona mazmunini ochib berish;

mamlakatimizda diniy bag'rikenglik, milliy qadriyatlar rivojida Alisher Navoiy va Bahouddin Naqshband qarashlari sinkretik xususiyatlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Alisher Navoiyning Naqshbandiya g'oyalariga oid qarashlari aks etgan asarlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Alisher Navoiy falsafiy va tasavvufiy qarashlarining naqshbandiya ta'limoti bilan uyg'unligini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror" asarlarida ilgari surilgan falsafiy-irfoniy dunyoqarashining negizlaridagi ontologik mohiyatga ega "borliqning birligi", juz va kul, birlik va ko'plik, (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) tushunchalarning naqshbandiya ta'limotidagi "ixlos", "hayrat", "tavhid" g'oyalarining "vuqufi zamoni" (zamondan ogoh bo'lish), "vuqufi adadiy" (kasrat ichida Ahadni ko'ra olish) va "vuqufi qalbiy" (qalbdan ogoh bo'lish) tamoyillariga uyg'unlashuvi hamda oliy haqiqatni bilish, Haqni bilish orqali olamni anglash g'oyasiga transformatsiyasi asoslab berilgan;

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi "odamiylik" (riyozat, xayrli ishlar qilish, tavba, halol luqma, muayyan kasb bilan mashg'ul bo'lish, xokisorlik, shirinsuxan va rahmdil bo'lish, saxiy, mard va muloyim bo'lish, sabrli va chidamli bo'lish, sadoqatli bo'lish) xususiyatlarining naqshbandiylikdagi "Dil ba Yor-u, dast ba kor" g'oyasining (faol hayot tarzi, mehnat qilish, halol luqma, ijtimoiy adolat)

irfoniy-axloqiy mazmuniga adekvatligi hamda uning “inson qadri” fenomenidagi mohiyati ochib berilgan;

mutafakkirning “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr” asarlaridagi ilm va amal, irfon kabi gnoseologik g‘oyalarning naqshbandiylik tariqatidagi Alloh ma’rifatiga yetishish, uning sifatlari bilan sifatlanish (irfoniy ma’rifat), Alloh roziligiga erishish, ilohiy jazba (ilmi hol), Alloh tajalliysini qalb ko’zi bilan idrok etish, insoniylik sifatlarining ilohiylik kasb etishi (vuqufi qalbiy), o’zlikdan batamom kechish, borliqni Alloh sifatlari tajallisi shaklida ko’rish (faqru-fano) tamoyillarini asoslashdagi o‘rni va naqshbandiyona talqini dalillangan;

Alisher Navoiyning vahdoniyat va olamni yagona mohiyati Alloh, butun koinot (katta va kichik olam) “Uning” vujud, ya’ni “vahdat ul-vujud”, “vahdat-ul shuhud”ga oid ontologik qarashlari naqshbandiya ta’limotiga xos insonparvarlik tamoyillarining takomillashishiga xizmat qilganligi, komillikning mukammal tarbiya maktabi ekanligi hamda bu tariqatning temuriylar davridagi mavqeini oshirishga, irfoniy negizlarini, ontologik asoslarining takomillashishiga ta’siri aniqlashtirilgan;

Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarida ifodalangan inson ulug‘vorligi, ma’rifat, o’zlikni anglash, adolatsizlikka qarshi kurashish, tinchlik va osoyishtalik kabi gumanistik g‘oyalarning Xojagon-naqshbandiya tariqati “Nazar bar qadam”, “Safar dar Vatan”, “Nigohdosht”, “Vuqufi zamoniyy” kabi rahshalariga integratsiyasi hamda “Dil ba Yoru, dast ba kor” tamoyilining bag‘rikenglik madaniyati va milliy qadriyatlar rivojidadagi sinkretik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy qarashlarida naqshbandiya tariqati g‘oyalarning namoyon bo‘lish xususiyatlari, ularning ma’naviy, ijtimoiy va madaniy muhitga ta’siri, turli xalqlarning yagona maslak va g‘oya atrofida birlashtirishga xizmat qilganligi asoslab berilgan;

Alisher Navoiy falsafiy va tasavvufiy qarashlari va insonni komillikka undovchi g‘oyalarning yoshlarni ijtimoiy faol bo‘lish, kasb-hunar egallash, sobit e’tiqodli, qat’iyatli bo‘lishida va falsafiy mushohadasining kengayishidagi axloqiy-tarbiyaviy roli ochib berilgan;

Alisher Navoiy merosida Naqshbandiylik ta’limotida ilgari surilgan altruizm, filantropiya va insonparvarlik g‘oyalarning ildizlarida inson ichki olamini poklash, nafsini tiyish, qalbini tasfiya etish orqali ruhiy-ma’naviy yuksalish tajribalarining imkoniyatlari isbotlangan, zamonaviy jamiyatda tasavvuf qadriyatlari integratsiyasiga oid ijtimoiy amaliyotda foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Alisher Navoiyning naqshbandiya tariqati mazmun-mohiyatiga oid g‘oyalarning insonparvarlik, ezgu fikr va qarashlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni kuchaytirishga, diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash, jamiyatning turli qatlamlari orasidagi hamjihatlikni yuksaltirish, shaxslararo munosabatlarda murosa madaniyatini shakllantirishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar birlamchi manbalar va qo‘lyozmalardan, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar

respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish, keng targ'ib qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, Naqshbandiya ta'limoti umuminsoniy g'oyalarining jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda va barkamol avlod tarbiyasining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, ijtimoiy-gumanitar fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, madaniy-ma'rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, Ma'naviyat va ma'rifat markazlari, intellektual salohiyatni o'stirish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning amaliy faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Alisher Navoiy falsafiy va tasavvufiy qarashlarining falsafiy tahliliga oid taklif va tavsiyalardan Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etish, asarlarini chet tillarga tarjima qilish, nashr etish va taqdimotlarini o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishda, yangi zamonaviy ekspozitsiya yaratish, tasviriy san'at asarlari, miniatyuralar, xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmalarini o'tkazish, shoir asarlari asosida maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar, o'quv-ma'rifiy filmlar yaratishda hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazlarining aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, shuningdek, "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, "Yetti pir" haqida kitob-albomlar yaratish, ommaviy axborot vositalarining ko'rsatuvlar va media materiallarini tayyorlashda, diniy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy ma'naviy merosida naqshbandiya ta'limoti mazmun-mohiyatiga oid g'oyalarning falsafiy ahamiyatini o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror" asarlarida ilgari surilgan falsafiy-irfoniy dunyoqarashining negizlaridagi ontologik mohiyatga ega "borliqning birligi", juz va kul, birlik va ko'plik, (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) tushunchalarning naqshbandiya ta'limotidagi "ixlos", "hayrat", "tavhid" g'oyalarining "vuqufi zamoniy" (zamondan ogoh bo'lish), "vuqufi adadiy" (kasrat ichida Ahadni ko'ra olish) va "vuqufi qalbiy" (qalbdan ogoh bo'lish) tamoyillariga uyg'unlashuvi hamda oliy haqiqatni bilish, Haqni bilish orqali olamni anglash g'oyasiga transformatsiyasiga doir ilmiy-nazariy xulosa va umumlashmalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106-son "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi" (2017-2020 yy.) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 9-sentyabrdagi 04/11-5434-son ma'lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiy falsafiy-irfoniy qarashlarining negizlari naqshbandiya ta'limotining diniy-falsafiy g'oyalariga

uyg'unligi va uning takomillashishi bosqichlarini bilish hamda amaliy-ilmiy tadqiqot loyihasining samarali bajarilishiga xizmat qilgan;

Alisher Navoiu ma'naviy merosidagi "odamiylik" (riyozat, xayrli ishlar qilish, tavba, halol luqma, muayyan kasb bilan mashg'ul bo'lish, xokisorlik, shirinsuxan va rahmdil bo'lish, saxiy, mard va muloyim bo'lish, sabrli va chidamli bo'lish, sadoqatli bo'lish) xususiyatlarining naqshbandiylikdagi "Dil ba Yor-u, dast ba kor" g'oyasining (faol hayot tarzi, mehnat qilish, halol luqma, ijtimoiy adolat) irfoniy-axloqiy mazmuniga adekvatligi hamda uning "inson qadri" fenomenidagi mohiyatiga oid ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatida, jumladan 2022-2023 yillarda mutafakkir hayotiga oid targ'ibot faoliyatida, kutubxona fondini boyitish, markaz xodimlarini yangiliklardan xabardor qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2023-yil 14-avgustdagi 05-13/101-son ma'lumotnomasi). Natijada, jaholatga qarshi ma'rifat, fan va madaniyat, ma'naviy barqarorlikka erishish kabi profilaktika va targ'ibot-tashviqot ishlar samaradorligini oshirishga, tasavvuf ta'limotlarining jamiyat ma'naviy hayotidagi ta'siri va turli mutaassib diniy guruhlarining g'oyalari qarshi kurashuvchi mo'tadil ta'limot ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilgan;

mutafakkirning "Mahbub ul-qulub" va "Lison ut-tayr" asarlaridagi ilm va amal, irfon kabi gnoseologik g'oyalarning naqshbandiylik tariqatidagi Alloh ma'rifatiga yetishish, uning sifatlari bilan sifatlanish (irfoniy ma'rifat), Alloh roziligiga erishish, ilohiu jazba (ilmi hol), Alloh tajalliysini qalb ko'zi bilan idrok etish, insoniylik sifatlarining ilohiylik kasb etishi (vuqufi qalbiy), o'zlikdan batamom kechish, borliqni Alloh sifatlari tajallisi shaklida ko'rish (faqru-fano) tamoyillarini asoslashdagi o'rni va naqshbandiyona talqiniga oid yangiliklar va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan buyurtma asosida tayyorlangan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi" kitobi mazmuniga singdirilgan hamda ilmiy-madaniy kataloglar, albomlar, ilmiy-amaliy materiallar bazasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 28-avgustdagi 02/395-son ma'lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiyning naqshbandiya ta'limotining nazariyotchisi sifatida ilgari surgan g'oyalar ensiklopediyani ilmiy manbalar bilan boyitishga, yosh avlodda islom dini va tasavvuf to'g'risida ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning vahdoniyat va olamni yagona mohiyati Alloh, butun koinot (katta va kichik olam) "Uning" vujud, ya'ni "vahdat ul-vujud", "vahdat-ul shuhud"ga oid ontologik qarashlari naqshbandiya ta'limotiga xos insonparvarlik tamoyillarining takomillashishiga xizmat qilganligi, komillikning mukammal tarbiya maktabi ekanligi hamda bu tariqatning temuriylar davridagi mavqei oshirishga, irfoniy negizlarini, ontologik asoslarining takomillashishiga ta'siriga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun

chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma‘rifat targ‘iboti 16-bandi “Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, boy ma‘naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ‘ib qilish” mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil 11-avgustdagi 02-22-766-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiy ma‘naviy merosida Naqshbandiya ta‘limoti mazmun mohiyatiga oid g‘oyalarning falsafa tarixidagi ahamiyatini ochib berish hamda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi o‘rnini asoslab berishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarida ifodalangan inson ulug‘vorligi, ma‘rifat, o‘zlikni anglash, adolatsizlikka qarshi kurashish, tinchlik va osoyishtalik kabi gumanistik g‘oyalarning Xojagon-naqshbandiya tariqati “Nazar bar qadam”, “Safar dar Vatan”, “Nigohdosht”, “Vuqufi zamoniyy” kabi rahshalariga integratsiyasi hamda “Dil ba Yoru, dast ba kor” tamoyilining bag‘rikenglik madaniyati va milliy qadriyatlar rivojidadagi sinkretik xususiyatlariga oid xulosa va tavsiyalardan Buxoro viloyati televideniesida efirga uzatilgan “Assalom Buxoro”, “Til – millat ko‘zgusi” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-avgustdagi 02-09-207-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Natijada, teletomoshabinlarda xalqimizni, ayniqsa, o‘z kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurligi, bugungi kunda insonlarni hayotni qadrlashga, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash yuzasidan kerakli ma‘lumotlarni olish imkoniyatini berib, ko‘rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 36 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 15 ta ilmiy maqola (10 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, sakkiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 230 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy

ahamiyati ochib berilgan, hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Alisher Navoiy qarashlarida Naqshbandiya tariqati g'oyalarining namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlanib, mazkur bobda Alisher Navoiy dunyoqarashining naqshbandiyona ildizlarini o'rganishning metodologik asoslari va falsafiy-irfoniy qarashlarida tariqat tushunchalari va tamoyillarining namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy qarashlarining naqshbandiylik g'oyalariga hamohangligi, ularning ildizlari, g'oyaviy asoslarining metodologik masalalariga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyada Movarounnahr va Xurosonning temuriylar davridagi ijtimoiy-madaniy yuksalishi, uning jamiyat a'zolari va o'lka xalqlari tafakkuri hamda turmush tarziga ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri malu edi. Har kishiningkim bir mashg'ullig'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim ul ishni kamolga etkurgay”⁷, - degan Bobur Mirzoning fikrlari keltirilib, mutafakkirning Sulton Husayn hukmronligi zamonidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ijtimoiy-madaniy hayot hamda ushbu jarayonlardagi bevosita davlat arbobi sifatidagi faoliyati va ijodining yuksalishidagi shart-sharoit hamda omillar ochib berilgan.

Tadqiqotchi Alisher Navoiy dunyoqarashi, uning naqshbandiyona ildizlarini tadqiq etib, naqshbandiylik ta'limoti va Navoiy ma'naviy merosini bog'lab turadigan asosiy g'oyaviy manbalar Qur'on va hadis, ahli sunna va jamoa aqidasi asoslangan diniy-falsafiy ta'limotlar, mumtoz tasavvuf davri namoyandalarning irfoniy qarashlari ekanligini asoslagan. Xususan, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridagi g'oyalar, Haq ma'rifatini anglashga bo'lgan ishtiyoqi Navoiyni tasavvuf va tariqat tamoyillarini mufassal o'rganishga, pirovardida insonni axloqiy, ruhiy-ma'naviy isloh qilish tajribalarini Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotiga olib kirishga, temuriylar saltanatining ma'naviy, mafkuraviy asoslarini mustahkamlashga, tasavvuf maktablari nufuzini, tariqat shayxlarining pozitiv g'oyalarini targ'ib qilishga undagani asoslab berilgan.

Dissertant Alisher Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Xoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy, Ya'qub Charxiy, Nizomuddin Xomush kabi naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari asarlari, tariqat shayxlari tajribalari, naqshbandiylikning irfoniy g'oyalari ta'sirida mutafakkir dunyoqarashi mahsuli bo'lgan “Hayrat ul-abror,” “Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Xazoyin ul-ma'oniyy” va boshqa asarlarini muhim nazariy manbalar qatorida ta'kidlagan.

Alisher Navoiy merosini o'rganish, unga bo'lgan qiziqish barcha davrlarda bo'lgan, biroq, tadqiqot uslublari davrning mafkuraviy bosimlari, turli yondashuvlar mutafakkir merosini batafsil, xususan, uning diniy-falsafiy

⁷Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 239-240

qarashlarini xolisona o'rganish imkonini bermagan. Sobiq ittifoq davrida mutafakkirning hayoti va ijodiga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlar mutafakkir hayoti, faoliyati va ijodi sinfiylik hamda partiyaviylik nuqtai nazaridan xarakterlanganligi uning serqirra merosining keng jamoatchilikda bir tomonlama yoki yanglish xulosalar chiqarishga olib kelgan. Alisher Navoiy ma'naviy merosini dinga va tasavvufga qarama-qarshi qo'yish, uning ijodidan ateistik g'oyalarni izlash, uni tojik adabiyotining tarjimoni sifatida baholashga harakatlar bo'lgan. Uning dunyoni bilish, o'zlikni anglash, Yaratuvchi va inson, olam va odam munosabatlari teran ifodalangan qarashlari tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyada Alisher Navoiy ma'naviy merosini tadqiq qilish borasidagi ishlar quyidagicha tasniflangan:

1. Alisher Navoiy asarlari va faoliyatini o'rganishga qaratilgan sobiq ittifoq davridagi izlanishlar.

2. Sharq va G'arb olimlarining Navoiy hayoti, ijod yo'li va aqliy taraqqiyotiga doir ishlar.

3. Navoiyning alohida asarlari tadqiqiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar.

4. Navoiy asarlari tarjimasi va sharhlari.

5. Navoiyning komil inson ta'limotiga doir izlanishlar.

6. Til va adabiyot muammolarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar.

7. Navoiyning falsafaga bo'lgan munosabatini tavsiflovchi, gumanistik g'oyalari, pedagogika va tasavvuf axloqiga hamda boshqa falsafiy manbalarga bag'ishlangan tadqiqotlar.

8. Navoiyning tasavvufiy, naqshbandiylikka oid qarashlariga doir izlanishlar.

Dissertatsiyada Alisher Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherni faqru-fano maqomi hamda hujjatul-islom Imom G'azzoliy ta'limotini o'rganganligi ta'kidlangan. Shuningdek, Xoja Avhad Mustavfiydan falakiyot ilmini, Xoja Yusuf Burhondan musiqa ilmlarini o'rganganligini, Samarqandda Xoja Fazlulloh Abullays Saraqandiydan islom ilmlarni, xususan, fiqh ilmini chuqur o'rganganligi, uni "Hanifai soniy" deb ulug'lagan ya'ni, Imom A'zam Abu Hanifaga nisbat bergani keltirilgan. Mutafakkir ustoz Abdurahmon Jomiyning "Lavomih" asarini sinchiklab o'rganib "vahdat ul-vujud" ta'limotining mohiyatini chuqur o'rganib, Abdurahmon Jomiyni o'zining tariqatdagi piri deb bilgani, undan tasavvuf va tariqatlar ularning o'zaro bog'liq va farqli jihatlarini, irfon falsafasini o'zlashtirganini manbalarga tayanib tahlil etilgan, ularning metodologik ahamiyati ochib berilgan.

Navoiyshunos olim Sultonmurod Olimning "Navoiy hazratlari garchi rasman Abdurahmon Jomiya murid tushgan bo'lsa ham, xonaqohda o'tirib shayxlik qilmagan, atrofiga murid to'plamagan, maxsus riyozat bosqichlarini o'tamagan, xilvatga kirib, chilla o'tirmagan edi"⁸, - degan fikrlarini iqtibos qilib, Navoiy soxta shayxlar, chillanishin murshidlar, muridlari soni bilan kibrlanadigan pirlarni

⁸Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.201.

qoralaganini uqtiradi. Shuningdek, naqshbandiylikning “suhbat”, “odob”, “ma’rifat” va “haqiqat”ga asoslangan “sahv” yo’lidagi konsepsiyasini targ‘ib qilib, o‘zi ham naqshbandiylikka ergashganini ta’kidlaydi.

Navoiy davrida yassaviylik, kubroviylik, naqshbandiylik va boshqa tariqatlarning nufuzi baland bo‘lgan. Tariqatlar jamiyatda millati, dini, irqidan qat’iy nazar barcha xaqlarni birlashtirishga, islom dinining yoyilishiga, uning insonparvarlik g‘oyalarini anglab etishida o‘ziga xos tarbiya maktabi vazifasini ham bajargan. Ilk so‘fiylik harakatlari hisoblangan malomatiylik, qalandariylik tariqatlari, darveshlik hanafiya muhitida keng yoyilib, insonni zohiriy va botiniy olamini isloh qilishga qaratilgan g‘oyalarining Navoiy asarlarida namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Navoiy ijodiyotini tasavvufdan uzoqlashtirish yoki ajratish nuqtai nazari hukmronlik qilgan mustabid tuzum mafkurasi bo‘lsa, qayta qurish va oshkoralik zamonidan so‘ng bunga mutlaqo teskari harakat boshlaganini, ya’ni, Navoiyning deyarli har bir she’ridan tasavvufiy ma’no axtarish, qanday qilib bo‘lsa ham irfoniy haqiqatlarni “kashf” etish umumiy bir intilishga aylandi. “Kechagina tasavvufga yot bir nazar bilan qaragan yoki bu ta’limotning kuch-quvvati va mavqei bilan hisoblashishni istamaydigan olimlar ham tasavvuf haqida ijobiy fikr-mulohazalarini bayon qilishga kirishdilar. Mustaqillikdan keyin so‘fiylik va tariqatlar tarixi, tasavvuf adabiyoti muammolari erkin o‘rganila boshlandi”⁹.

Tadqiqotchi Alisher Navoiyning ma’naviy merosini o‘rgangan olimlar uning asarlaridagi tasavvuf va tariqat tushuncha hamda tamoyillarining qo‘llanilishida qiyinchiliklarga duch kelganliklari, Alisher Navoiy merosidagi islom ilmlari bilan bog‘liq tushuncha va kategoriyalar mohiyatini bilish, diniy ilmlardan va dunyoviy ilmlardan xabardor bo‘lishni talab etishi, Alisher Navoiyni tushunish boshqa, uning fikr va g‘oyalarini anglash boshqa ekanligini asoslagan.

Navoiy asarlarida ontologik va gnoseologik masalalar, inson ruhiyatining nozik sirlari, holatlari va o‘zgarishlari diniy falsafiy tusda namoyon bo‘ladi. Sharq falsafasi, qolaversa, islom falasafasining o‘ziga xos jihatlari, tushuncha va kategoriyalari yunon falsafasidan farqli tomonlari, o‘xshash jihatlari bilan ajralib turadi. Borliqning birligi va xilma-xilligi, juz va kul, birlik va ko‘plik, vahdat va kasrat kabi ontologik mohiyatga ega tushunchalar Navoiy merosining falsafiy masalalarini ochib berishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqotchi Alisher Navoiy falsafiy-irfoniy dunyoqarashining negizlaridagi “borliqning birligi” (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) tushunchalari “Nasoyim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror” asarlarida ilgari surgan naqshbandiya ta’limotining “ixlos”, “hayrat”, “tavhid” g‘oyalariga uyg‘unligini asoslab, uni tizimli tarzda tahlil etgan. Naqshbandiyona mazmundagi irfoniy g‘oyalar yoki umumtasavvufiy tushuncha va kategoriyalar mazkur asoslarga tayanishini ta’kidlagan.

Alisher Navoiy asarlarining ibtidosi Allohga hamd va payg‘ambarga salovatdan boshlanadi. “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” tasavvufiy, falsafiy, axloqiy mazmuni bilan shoh asarlari sirasiga kirgan. Dostonda Tangri maqtovi, koinot va jamiyat hayotining tub masalalari – inson, sevgi, vafo va jafo,

⁹ Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. –Тошкент: Фан, 2007. – Б. 25-26.

to‘qqiz qavat osmon, quyosh, yulduzlar, gulzor, bog‘lar – bu olamning go‘zalliklari Xoliq, Yaratguvchining husniga ko‘zgu ekanligi aytiladi. Inson ko‘ngli buyuk olam sifatida talqin etilganining mazmunini ochib bergan deb shu mazmundagi nazmiy parchani keltirgan:

Solik ani Arshi muallo dedi,
So‘fiy ani olami kubro dedi¹⁰

Tadqiqotchi Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida koinotda barcha mavjudotlar orasida insonning o‘rni, malakut – farishtalar olamining nafosati, cheksiz go‘zalliklarini ko‘rib, hayratlanishini tasvirlagan. Bunda mutafakkirning barcha go‘zalliklar orasida Bahouddin Naqshbandning naqshlari singari naqshlar yo‘qligini, fano naqshi tasvirini solish uchun jonga ranju fano naqshini chekkanligini ifodalab, shu tufayli abadiylik naqshini solganligi xususidagi fikrlarining falsafiy-irfoniy mohiyatini ochib bergan.

Alisher Navoiy tavba, zuhd, tavakkul, sabr, rizo qanoat, tavoze’, vafo, hayo tushunchalarining mazmun mohiyatini ochib bergan hamda nabiylar, avliyo va oriflar, yirik karomat sohiblari komil insonlar, komillik, “komil inson” g‘oyasi “Haqiqati Muhammadiya”ga bog‘lanishi haqidagi qarashlarni tahlil etgan. Shuningdek, Navoiyning dil, ko‘ngil – Alloh nazar qiluvchi makon, adolat, ilmlardan, g‘ayb asroridan xabardorlik, inson vujudini boshqarish ko‘ngil – insonning e’tiqodi, iymoni, aql ham, bilimlar, tafakkur ham ko‘ngilga tobe’ va unga xizmat qiladi. Olam Arshida Alloh hokim bo‘lsa, inson vujudi (ruhiy) olamida ko‘ngil hokimligi borasidagi falsafiy fikrlari mazmunini ochib bergan.

Dissertatsiyada Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni uchga avom ishq, xos kishilar ishq, siddiqlar ishqiga bo‘lganligi, ularning ishq Haqqa qaratilganligi ilohiy ishq haqidagi qarashlar doirasida tahlil qilingan. Navoiy qarashlariga ko‘ra, avom ishq nikoh bilan tugaydi, xoslar ishqini Abdurahmon Jomiy pokbozlar deb atagan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy shu tabaqaga mansub bo‘lgan. Siddiqlar xalqdan butunlay uzilganlar, pokbozlar xalq xizmatida bo‘lganlar. Har ikkala mutafakkir om (umumga tegishli) va xos (xos kishilar, so‘fiylar nazarda tutilgan) bo‘lgan poklikni tanlaganlar. Siddiqlarni Abdurahmon Jomiy “ravshandilon” deb ataganligi xususidagi tahlillar berilgan.

Tadqiqotchi Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanishiga Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri vakillaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Rumiy, so‘fiy mutafakkirlardan Ibn Arabiy, Fariduddin Attor, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiyning ilg‘or fikrlari ta’sir ko‘rsatganligini asoslash barobarida uning ma’naviy merosida ontologiya va epistemologiya masalalari muhim o‘rin tutishini qayd etadi. Ontologiya masalalarida Alisher Navoiy o‘z qarashlarini vahdat ul vujud tushunchasiga asoslagan bo‘lib, u borliqning birligi g‘oyasidan kelib chiqqan, uning asosida inson haqiqatni (Haqni) bilishga intilishi kerak, degan g‘oya yotadi, bu esa, pirovardida haqiqatni anglashga hissa qo‘shgan.

Shuningdek, Navoiy dunyoqarashining shakllanishida oila muhiti, temuriylar boshqargan saltanatning ilm-fan, adabiyot, san’at, islom ilmlari, tasavvuf, hadis

¹⁰ Навоий, Алишер. Хайрат ул-Аброр. XVII боб. Танланган асарлар. – Тошкент: Юнисеф, 2009. – Б. 46.

sohalariga e'tibori va homiyliги katta rol o'ynagan. Alisher Navoiyning yoshligida uning ruhiyati va ongiga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan Attorning "Mantiqut-tayr" asari so'fiyona qarashlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otgan. Bu "Lison ut-tayr" misolida namoyon bo'lishi Navoiyning dunyoqarashida tasavvufiy qarashlar, naqshbandiyona tamoyillarning ildizlari Movarounnahr va Xuroson so'fiylari, mutasavviflarining merosi, ta'limotlarining ta'sirini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy naqshbandiya ta'limotning "Xilvat dar anjuman" tamoyili va "Dil ba Yor-u, dast ba kor" shiorini mukammal o'zlashtirgan va tarkidunyo qilmasdan, ijtimoiy-siyosiy hayotda faollik ko'rsatib, naqshbandiya sulukining vakili sifatida faollikda boshqalarga namuna ko'rsatgan. Alisher Navoiy tasavvuf va naqshbandiyaning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur o'rgangan hamda uni o'z asarlari orqali targ'ib etgan mutasavvifdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Alisher Navoiy ma'naviy merosida Bahouddin Naqshband shaxsiyati va naqshbandiya ta'limotining ontologik va gnoseologik masalalari talqini**" deb nomlangan bo'lib, unda Alisher Navoiyning Bahouddin Naqshband shaxsiyatiga munosabati va uning "xoriqulodda odatlari" xususidagi qarashlari falsafiy tahlil etilgan.

Tadqiqotchi Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" dostonining XXI maqolotidagi "Xoja Bahouddin Naqshband quddusa sirruhu madhidakim, sun' naqqoshi hikmat xomasi bila ro'zg'or sahifasida aning vujudi naqshin islomiy tarh etti va surati irshod bila kufr ahli ko'ngli varaqidin xitoyi va farangi naqshi ketti va Xoja Ubaydullo sallamahumullohga niyoz arzkim ul hazaratiqa xalafi mutlaq balki xalafi barhaq durur"¹¹, - degan qarashlari asosida Navoiyning Bahouddin Naqshband shaxsiyatiga munosabati, uning sifatleri, faoliyati, karomatlari xususidagi fikrlarini tahlil etgan.

Shuningdek, tadqiqotda Bahouddin Naqshbandga bag'ishlangan baytlarini keltirilgan:

Xojaki, naqqoshi sipehri baland,
Bo'lg'ali har safhasig'a naqshband¹².

Navoiyning bu misralari orqali baland osmon, yuksak falak Naqqoshi bo'lgan Naqqosh – naqshsoz, naqsh soluvchi, suratkash, gul soluvchi ma'nosini anglatadi. Naqqosh bu misrada butun borliq, falakni yaratgan, yaratuvchi Allohdir. Alisher Navoiy "naqshband" so'zining mohiyatini ochish va mazkur ildizdan vujudga kelgan jahonshumul ta'limot naqshbandiylikning mazmunini ochishda "naqsh" so'zidan foydalangan. Naqsh raqam ayladi, dilkash base-misrasi bilan Alloh yer yuzida Bahouddin Naqshband kabi insonni yaratganiga ishora etgan.

Bahouddin Naqshband qalbidagi naqsh, u yaratgan naqshbandiylik ta'limoti, Sulaymon payg'ambar qo'lidagi uzugining naqshi kabi butun borliqqa ta'sir eta olgan.

Alisher Navoiy ushbu satrlarda butun dunyoga o'zining naqshi bilan dong taratgan Chin mamlakatining naqshi Bahouddin Naqshbandning naqshiga teng kela

¹¹ Navoiy, Alisher. Hayrat ul-abror / Xamsa. To'la Asarlar To'plami. O'n jildlik. Oltinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011. –B.82

¹² Navoiy, Alisher. Hayrat ul-abror / Xamsa. To'la Asarlar To'plami. O'n jildlik. Oltinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011. –B.82

olmaganini, olam go‘yo xojaning barmog‘idagi uzugining naqshiga aylanib qolgan. Shu bilan birga Navoiy Bahouddinni “Shohi Naqshband” deb ta’riflagan.

Dissertant fikricha, Alisher Navoiyning ontologik qarashlaridagi borliq, yo‘qlik, Yaratuvchi va inson, tabiat va jamiyat tushunchalari ba’zi qarashlarda bo‘lgani kabi mutaassiblik, zohidlik tarafdori bo‘lmasdan, irfoniy, ma’rifiy qarashlar va harakatlarga uyg‘un bo‘lgan. Mutafakkir borliqni bilish, dunyoni anglash, u haqda fikr yuritish, tafakkur kuchi bilan o‘z imkoniyati darajasida o‘zgartirish faqat insonga xos fazilatdir, deb hisoblagan. Inson tafakkur qudrati, aqli bilan uni bilib oladi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida:

Dedi: har ishniki qilmish odamizod,
Tafakkuri birla bilmish odamizod¹³,

- deganda shuni nazarda tutgani ochib berilgan.

Tadqiqotda Alisher Navoiy ma’naviy merosida bilish inson sezgilari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan – aql, idrok, ko‘ngil, did-farosat, xotira, mushohada, mulohaza, shuningdek, farosat, ilhom, vajd, irfon kabi tushunchalar bilan ifodalanganligi asoslab berilgan.

Navoiy asarlarida aql qamroviga ko‘ra aqli juz va aqli kullga bo‘linadi. Bu yerda aqli juz – jo‘n qaraganda kichik aql degan ma’noni beradi, lekin, mantiqiy mohiyatdan kelib chiqilsa, alohida kichik masala va muammoga qaratilgan aqliy faoliyatni anglatadi.

Dissertatsiyada Alisher Navoiy ma’naviy merosi asosida aql quyidagicha tavsiflangan:

- aqli mujarrad – abstrakt aql;
- aqli mustaqim - barqaror aql;
- aqli muhosib – fahm-farosatga bo‘ysunuvchi ong, aql;
- aqli saloh – to‘g‘ri, sog‘lom aql;
- aqli mezon – aql o‘lchovi, ya’ni bilimlarning nisbiy me’yori sifatida;
- aqli xurdabin – o‘tkir, sezgir, nozik aql kabi tushunchalar bilan ifodalanadi.

Alisher Navoiy ontologik qarashlarida *araz* – biror narsaning asli bo‘lmay, keyin paydo bo‘lgan vaqtli sifati; *adam* – yo‘qlik, hali olamni o‘zi ham va olamdagi hech narsa yo‘q bo‘lgan vaqt; *bidoyat* - ya’ni ibtido, boshlanish xususan, olamni ibtidosini anglatadigan istiloh; *javhar* – asos, unsur, mohiyat, asl modda, narsaning tub o‘zagi - substansiya, mohiyat; *mohiyat* – haqiqat, tabiat, har narsaning asli - substansiya shaklida talqin qilingan.

Navoiy merosida vaqt bilan bog‘liq tushunchalar – adam, azal, abad, ibtido, intiho, bidoyat, davr, davron, falak davri, charx davri, zamon, dam kabi istilohlar shaklida keltirilgan. Alisher Navoiy qarashlarida vaqt – azal bilan abad, abadiyat orasidagi umumiy davr oqimi deb ta’riflanib, makon va undagi ashyolar Haqning hukmida. Shuningdek, falsafada vaqt – bu orqaga qaytmaydigan, faqat bir tomonga o‘tuvchi, o‘tmishdan – hozir orqali –kelajakka qarab kechuvchi davr oqimidir.

¹³ Navoiy, Alisher. Hayrat ul-abror / Xamsa. To‘la Asarlar To‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. –B.411

Alisher Navoiy begaron – bepoyon; begoh – vaqtda bepoyonlik, uzoq vaqt ifodasi, shuningdek, makonda bepoyonlik tarzida ham qo‘llaganini kuzatish mumkin. Alisher Navoiy an’anaviy tarzda ahli sunna aqidasi asosida “Tavhid” tarafdori bo‘lgan. Uning “Vahdat ul-vujud” ta’limotiga munosabatida “tavhid”ni nazarda tutganini anglash mumkin.

Mutafakkir “Navodir ush-shabob” da:

Navoiy o‘lmadi tavhid guftu go‘ birla fahm

Magarki aylagosen tilni qatu jonni fido¹⁴,

- deb ta’kidlaydi. Bu naqshbandiylik tamoyillariga to‘liq mos keladigan naqshbandiyona borliqning ifodasi yoki namoyon bo‘lishidir.

Navoiy “Lison ut-tayr” asarida “Tavhid”ni shunday ta’riflaydi: “Agar o‘zingni shod ko‘rishni istasang va har qanday qayg‘udan ozod bo‘lishni xohlasang, o‘zingni Uning yodi bilan yashashga odatlantir. Agar shodlik istar bo‘lsang, Uni yod qil. Uning yodidan tashqaridagi shodlik aqlga muvofiq kelmaydi. Undan ayriliqdagi ayshu ishratdan g‘am yaxshiroqdir, bunday to‘ydan aza yuz marta yaxshi sanaladi. Undan g‘am kelsa ham shodlik o‘rnida ko‘rgil, bu seni har qanday balo kishanidan xalos qiladi”¹⁵.

Dissertatsiyada Alisher Navoiyning tasavvuf falsafasi va axloqi, naqshbandiya sulukining asosiy tamoyillari, yo‘llari haqidagi mulohaza va xulosalari yirik asarlar bilan birgalikda ruboiy, qit‘a, g‘azal singari kichik janrlardagi badiiy matn doirasida ham ko‘rinadi.

Tadqiqotda Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida solik amal qilishi lozim bo‘lgan jihatlar ochib berilgan. Bular, maqomot yo‘liga kirgan har bir solik o‘zida ilm, hilm, taqvo, sahv, shukr, sidq, vafo, rizo, safo, ishqdan iborat.

Tadqiqotchi ta’kidlashicha, naqshbandiya ta’limotida ma’naviy poklik, asosiy o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham naqshbandiya Markaziy Osiyo tasaavvufida juda katta nufuzga ega bo‘lganki, uning suluk va ta’lim qoidalari tariqatda muhim o‘rin tutgan. Chunonchi, naqshbandiyada solikning ma’naviy yuksalishi eng asosiy talabi nafs tarbiyasi ekanligini Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida quyidagicha tasvirlaydi: “Har solikki nafs fanosi sarhadig‘a etgan bo‘lsa, anga g‘azab dast bergay. Shayton anga dast topqay. Chun nafs fanosi qilmish bo‘lsa, anga g‘azab bo‘lmas, g‘ayrat bo‘lur va shayton g‘ayratdan qochar”¹⁶. Demak, Navoiy asarlarida nafsdan foni bo‘lish, o‘zlikni tanish, o‘zlikni bilish, anglash naqshbandiylikning “sahv” hushyorlik yo‘lidir. Shuningdek, Navoiyning borliq va bilishga oid qarashlari naqshbandiylikning “Tavhid” g‘oyasiga to‘la mos keladi. Borliqning birligi va xilma-xilligi butun ma’naviy merosining falsafiy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqotda Alisher Navoiyning Xoja Bahouddin Naqshband idealiga munosabati uning hayoti va faoliyati “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keng yoritilganligi ta’kidlangan. Shuningdek, Xojagon – naqshbandiya tariqati vakillari hayoti va faoliyati xususida “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”,

¹⁴ Navoiy, Alisher. Navodir ush-shabob. To‘la Asarlar To‘plami. O‘n jildlik. 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. –B.6.

¹⁵Навоий, Алишер. Лисон ут-тайр. МАТ. Т. 12. –Тошкент: Фан, 1996. –Б.135

¹⁶Навоий, Алишер. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. Т.17. -Тошкент: Фан, 2001.-Б.15.

“Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Majolis un-nafois”, “Siroj ul-muslimin”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Arba’in” asarlari muhim o‘rin egallashi qayd etilgan.

Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari “Xamsa” tarkibidagi dostonlari, “Lison ut-tayr” kabi badiiy-majoziy asarlari bilan bir qatorda, “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoyim ul-muhabbat” “Majolis un-nafois” “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya” “Muhakamat ul-lug‘atayn” asarlarida keltirilgan. Mutafakkirning “Siroj ul-muslimiyn”, “Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, “Risolayi tiyr andoxtan”, “Munojot” asarlarida islom falsafasida borliq muammolari tahlil qilingan. Alisher Navoiyning gnoseologik qarashlarida inson sezgilari bilan umumiylik kasb etgan, ko‘ngil, xotira fikr, fahm, did-farosat, nafs, idrok kabi umumbashariy sifatlar badiiy-falsafiy tarzda bayon qilingan bo‘lib, aslida inson sezgilari va bilish nazariyasiga tegishli ilmiy xulosalar sifatida qabul qilish mumkin.

Alisher Navoiyning borliq haqidagi qarashlari vahdat ul vujud ta’limotining “hamma narsa Undandir” va “hamma narsa Udir” degan qarashlar tizimiga moyillikni ko‘rish mumkin degan qarashlar mavjud. Ammo Alisher Navoiy bunda “Tavhid” tarafdori bo‘lgan. Vahdatul-vujud deganda tavidni tushungan. Alisher Navoiyning ontologik qarashlarida vahdoniyat va olamni yagona mohiyati Alloh ekani anglanadi. Mutafakkir butun koinot olam, zarralargacha Uning vujudi deydi. Shu bilan birga, olam yaralishidan oldin, ya’ni adam davrida Allohdan boshqa hech narsa yo‘q edi, Alloh “Bo‘l” (Yaral ma’nosida) dedi olam-u ashyolar “bo‘ldi”, (Yaraldi) vujudga keldi, degan qarashlaridan kelib chiqadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Alisher Navoiy qarashlarida naqshbandiylikning inson moddiy va ma’naviy barkamolligi xususidagi g‘oyalarining falsafiy tahlili”** deb nomlangan va ushbu bobda Alisher Navoiy ilmiy merosida naqshbandiya ta’limotining “halol luqma”, “faol hayot tarzi” “kasb-hunar egallash”ga oid tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy tahlili hamda ilm va amal, irfon va ma’rifat xususidagi qarashlarining “Dil ba Yor-u, dast ba kor” tamoyiliga uyg‘unligi masalasi tadqiq etilgan.

Naqshbandiya ta’limotining bag‘rikenglik, hushyorlik ya’ni g‘ofil bo‘lmaslik, ilm va ma’rifatga undovchi g‘oyalari, inson va jamiyatning osoyishtaligi, barqarorligi aynan yakdillik, o‘zaro hamjihatlik, xayr-saxovat, halollikka bog‘liqligi xususidagi g‘oyalari Alisher Navoiy merosining o‘zagini tashkil etgan. Alisher Navoiyning naqshbandiya tariqatiga chuqur ixlos qilish sababi, bu ta’limot inson va jamiyatni yaxlit organizm sifatida qarab, uning yashovchanligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri “halolik” ekanligiga urg‘u berishidir. Albatta, naqshbandiya tariqatining eng muhim tamoyillarini o‘z asarlarida targ‘ib qilishi, uning Bahouddin Naqshband va uning hayotbaxsh g‘oyalariga tayanishi Navoiyning naqshbandiyaga bo‘lgan buyuk ehtiromi va ixlosini namoyon etadi.

Alisher Navoiy uchun tasavvuf – komillik yo‘lidir. Mutafakkir shu ma’noda, naqshbandiylikni “tariqati oliya”, “qanoat tariqi”, “faqr yo‘li”¹⁷ - deb ta’riflagan.

¹⁷ Навоий, Алишер. Хайрат ул-аброр. МАТ. Т. 7. –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 398.

Allohga bo'lgan muhabbat va halol mehnat masalasi Navoiy ijodida juda katta o'ringa egadir. "Nazm ul-javohir" asarida qalb nuri – halol taomdan paydo bo'lishi, taqvo yo'lidagi inson uchun kimningdir himmati yoki minnati bilan berilgan ziyofatdan ko'ra, o'z kasbi, mehnati orqali qo'lga kiritilgan bir parcha non quyoshdan ham a'lo ekanligi targ'ib etilgan. Ya'ni:

Yutmayin xunoba yetmas vasli oning, ahli ishq
Topsa Kavsar sharbati, andog'ki qon ko'rmas laziz¹⁸.

Dissertant fikricha, Alisher Navoiy halol luqma deganda, valiyning o'z mehnati bilan kun ko'rishini, biror kasb bilan mashg'ul bo'lishini qo'llab-quvvatlagan. Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo'z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu-Hafz Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan muzayyin, Shayx Banon hammol, hazrati Bahouddin Naqshband matoga naqsh soluvchi bo'lganlar. Naqshbandiylikning "Dil ba Yor-u, dast ba kor" tamoyili aynan shu g'oyani namoyon etgan.

Dissertatsiyada "naqshbandiya bevosita kasb-kor kishilariga – shaharliklar, hunarmandlar, ziyolilar, o'troq holda kun kechirayotgan dehqonlarga mo'ljallangan edi¹⁹", deb ta'kidlangan. Demak, jamiyat ijtimoiy qatlamlarining xilma-xilligi undagi qarashlar, tariqatlar, oqimlar ta'sirida kishilarning boqimandalikdan olib chiqishda naqshbandiylik insonparvarlik maqsadlarini amalga oshira olgan tariqat hisoblangan.

Inson komillik da'vosini yig'ishtirib qo'yib, o'ziga berilgan umrni insonlik maqomiga munosib yashashi, unda Alloh bergan barcha ne'matlardan bahramand bo'lishga intilish, o'zini moddiy va ma'naviy barkamol bo'lish yo'lidagi intilishlarini halol mehnat, sabr-qanoat, mustahkam e'tiqod bog'lashi oxir-oqibat maqsadlariga Allohning rizoligiga erishishi, ikki olam saodatiga musharraf bo'lishi nazarda tutiladi.

Dissertatsiyada Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida inson qo'li mo'jiza yarata olish qudratiga ega bo'lgan a'zo, nafaqat insonga u yoki bu narsani uzatuvchi, olib beruvchi emas, hunar bilan kamolotga yetkazadigan a'zo deb ta'rif berganligi ta'kidlangan.

Navoiy inson mehnati ila bunyodkorlikka, farovonlikka erisha olishini ta'kidlagan holda, tabiatdagi juda ko'p voqea hodisalarni insonlarga o'rnak qilib ko'rsatadi.

Tuxm yerga kirib chechak bo'ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?
Ipak qurtichalik himmating yo'qmu?²⁰

Alisher Navoiy boshqa bir misralarda inson mehnatining xosiyatini ilohiy qismatning xohish irodasi deb biladi. Navoiyning birgina "mehnat" so'zi bugun biz talqin qilayotgan mehnat tushunchasiga nisbatan juda ko'p ma'noni beradi.

Tengri ehsonig'a shod o'lg'on – qilur
O'zni shodu mehnatidin elni ham²¹.

¹⁸ Навоий, Алишер. Бадойиъ ул-Бидоя. МАТ. Т. 1. – Т.: Фан. 1987. – Б. 119.

¹⁹ Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Перевод с английского под редакцией и с предисловием О.Ф. Акимовской. - М.: Наука, 1989. - С. 83.

²⁰ Навоий, Алишер. Бадойиъ ул-Бидоя. МАТ. Йигирма томлик. Т.1. –Т: Фан, 1987. –Б.18.

Alisher Navoiy dehqon va bog‘bon mehnatining jamiyat farovonligi uchun juda katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Uningcha, dehqon va bog‘bon tinmay tunu kun mehnat qilsagina, ekkan ko‘chati unib, o‘sib, meva beradi, gul bo‘lib ochiladi. Aks holda ular ekkan ko‘chat qurib, o‘tinga aylanadi. Chaman chamanlikdan mahrum bo‘ladi.

Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, mutafakkirning ushbu fikrlari inson tarbiyasiga juda o‘xshab ketadi. Agar tarbiyaga mas‘uliyat bilan qaralmasa, o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, bola el-yurt uchun emas, faqat o‘z manfaati uchun nopok yo‘llar orqali harakat qiladi.

Alisher Navoiy o‘zining juda ko‘p asarlarida ilm masalasiga to‘xtalib, o‘zining “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida No‘shiravoni odilning vaziri Buzurjmehr ustozidan yigitlikda ne qilmoq yaxshi va qarilig‘da ne qilmoq yaxshi? deb so‘rabdi. Ustoz shunday javob beribdi: yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig‘da ani amalga kelturmak.

She‘r: Yigitlig‘da yig‘ ilmning maxzani, qarilig‘ chog‘i xarj qilg‘il ani²².

Dissertatsiyada Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida Alisher Navoiyning yoshligidan umrining oxirigacha asosiy vaqtini ilm egallash va kamolotga erishish ishiga sarflagani, juda katta qimmatga ega bo‘lgan kitoblarni mutolaa qilgani, Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiyning ilmidan foydalanish uchun xizmatda turgani, keyinchalik Jamoliddin Atoulloh, Mir Kamoliddin Husayn, Mavlono Mu‘iniddin Voizni, Husayn Voiz Koshifiy kabi zamondosh olimlarni ham moddiy, ham ma‘naviy qo‘llab-quvvatlab turgani, Qur‘on va tafsir ilmidan ta‘lim olishni yoshlik chog‘idan boshlagani, xususan, uning “Majolis un-nafois” asarida olti yoshida tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo‘lgan suhbatida Qur‘onni “Taborak” surasigacha aytib bergani o‘z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy fikricha, ilm bilan amal bir-birini taqozo qiluvchi tushunchalardir. U bir baytida fozillar orasidan joy olish uchun ilm da komil va adabda namuna bo‘lish lozimligini uqtiradi:

Navoiy, asru muaddabdur ul mahi maktab,
Adab tariqi bila yozg‘asen anga maktub²³.

Bu fikrlar naqshbandiya tariqatining rashhalari “Nazar dar qadam”, “xilvat dar anjuman”ga hamohangdir. Alisher Navoiy “Sa‘di Iskandariy” dostonida “hikmat” haqidagi qarashlarini mufassal bayon etgan. Iskandarga hamroh bo‘lib, unga juda og‘ir sharoitda o‘z yordamini ayamagan yunon faylasuflarining donoliklari, tadbirkorliklarini maqtaydi. Naqumohis, Arastu, Aflotun, Suqrot, Asqalinos, Buqrot, Hurmus, Faysog‘urs kabi faylasuflarning donoliklarini faqatgina maqtov bilan emas, balki ulardan o‘rnak olmoqlikka da‘vat etgan. O‘z davridagi olimlarni xalq manfaatiga xizmat qilishga targ‘ib qilgan.

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,

²¹ Navoiy, Alisher. Xazoyn ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. TAT. T-4. -T.: G‘afur. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013. –B.722.

²² Navoiy, Alisher. Tarixi anbiyo va hukamo / Xamsa. To‘la Asarlar To‘plami. O‘n jildlik. sakkizinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. –B.600.

²³ Навоий, Алишер. Наводир ун-нихоя. МАТ.Т.2. - Т.: Фан. 1987. –Б 47.

Emdiki ilm o'ldi – amal aylagil²⁴.

Dissertantning fikricha, Alisher Navoiy naqshbandiya tariqatining yirik vakili sifatida ta'limotning asosiy mag'zini o'zining baytlarida bevosita namoyon etgan. Uning dostonlaridan ilm haqida juda ko'p hikmatli baytlar, tanbeh va nasihatlar o'rin olgan. Alisher Navoiy “qol ilmi”, “hol ilmi” xususidagi fikrlarini ham asarlarida ifodalagan. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ba'zi bir shayxlar xususida gapirganda, Zohir ulumi va botin ulumiga jome'dur, usul va ulumi zohirda olim erish, ulumi zohiriy va botiniy bila olim erdi, “Ilmi zohir ulumida ham qutubi bor” kabi fikrlarni keltirgan.

Tadqiqotda Navoiy o'z asarlarida zohiriy va botiniy ilmlarga ega bo'lganlar sifatida so'fiy, orif, darvesh, oshiq va boshqalarni tilga olganligi qayd etiladi. Jumladan, mutafakkir “Mahbub ul-qulub” asarining “Darveshlar zikri” bobida darvesh, eranlarning fazilatlarini ta'kidlab o'tib, ularga ta'rif bergan: Bular: rizo va faqr maqomini egallagan; qalbi toza; taqdirdan mamnun; qattiq riyozatlar chekib, “sidqu fano tariqini tuzgan”, yuksak himmatli bo'lganidan “Vujudi Mutlaqdin o'zga barcha” narsani unutgan, ichi tashqarisiga muvofiq bo'lsa, botini zohiri bilan mutanosib, surat ahli da'vo qilguvchilar hisoblansa, darveshlar, eranlar ularning aksi, ya'ni o'z hollarini yashiruvchi, zohirlari binosini buzib, botinlari asosini tuzatadilar. Ular kishilarning ranju malomatiga chidaydigan, emak-ichmakdan kechib, Haq rizosini istarda g'am eb qon ichadilar. Ushbu ta'riflar Movarounnahr va Xurosonda faoliyat yuritgan malomatiylik va qalandariylikka mansub darveshlarning xatti harakatlari, tashqaridan xalq bilan ichkaridan Haq bilan bo'lgan holatlari tavsiflangan.

Shuningdek, “Nasoyim ul-muhabbat” asarida abdollar maqomi xususida fikr yuritib, ularning zohiriy va botiniy xislatlarini ko'rsatib o'tadi:

- oz gapiradilar, ko'p fikrlaydilar;
- erta uyg'onib, kam uxlab, kechaning asosiy qismini riyozat bilan o'tkazadilar;
- kam eydilar, ochlikka sabr qiladilar;
- xalqdan yiroq, Haqqa yaqindirlar.

Ularning botiniy xislatlari:

- Tajarrud- ajralib chiqqanlar;
- Tafrid - yakkalangan Alloh uchun;
- Jam' - Alloh bilan Yakka qolish uchun botiniy holatlarini tayyorlaganlar;
- Tavhid - Allohni yakkayu-yagona deb biluvchilar.

Arit sirishk bila zohiringda bor esa chirk,

Yuv tavba suyi bila bo'lsa botining aro sho'x²⁵.

Demak, mutafakkir asarlarida zohir va botin ilmlari, shuningdek, ular bilan bog'liq ijobiy va salbiy holatlar majoziy, haqiqat yo'sinida ifodalangan.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da “ma'rifat” vodiysi xususida fikr yuritadi. Allohga murojaat etib:

Ey qilib insonni koni ma'rifat,

²⁴ Навоий, Алишер. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Т.8. - Тошкент: Фан, 1991. –Б.68

²⁵ Навоий, Алишер. Наводир ун-нихоя. МАТ.Т.2. - Тошкент, 1987. - Б. 92.

Ko'nglini aylab jahoni ma'rifat²⁶.

Dissertant fikriga ko'ra, qalbdagi ma'rifat maydonga kelgach, qalbning holi, zavq-shavqi ham o'zgaradi. Qalbning holati o'zgargach, a'zolarining ham amallari o'zgaradi. Solikdagi ilm, amal va ixlos mukammal bir holatga keladi. Tavhid pog'onasiga etishi mumkin. Alisher Navoiy fikricha, ma'rifat ko'ngulda hosil bo'lgach, solikda basirat paydo bo'ladi.

Mutafakkir Alisher Navoiy naqshbandiylik tariqatini turli xil nomlar bilan tilga oladi. Bular, "tariqati oliya", "qanoat tariqi", "faqr yo'li". Navoiy o'zining deyarli barcha asarlarida Allohni naqsh bilan bog'lab tasvirlagan. Mutafakkir fikricha, naqsh ham, naqqosh ham, manqush (naqshlangan zot) ham Allohning o'zidir. Bu sirni biror kishi unchalik fosh qilmaganini ta'kidlaydi. Xojagon ta'limotining "Dast ba kor-u, dil ba Yor" shiorini Bahouddin Naqshband rivojlantirgan va "Dil ba Yor-u, dast ba kor" sifatida qabul qilgan. Xojagon tariqatida, avval, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, keyin iymon bo'lsa, Naqshbandiya ta'limotida, avval, iymon insonning asosiy sifati deb qabul qilingan.

Alisher Navoiy ilm tushunchasi bilan birga ma'rifat tushunchasini ham o'z asarlarida juda ko'p ishlatgan. "Ma'rifat" so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari mavjud. Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib, bilish, anglash, idrok etish kabi ma'nolarni anglatadi. Ma'rifatga, albatta, ilm orqali erishiladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Alisher Navoiy ma'naviy merosida naqshbandiylik g'oyalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sinkretlashuv ahamiyati**" deb nomlangan bo'lib, bunda Alisher Navoiy qarashlarida "odamiylik" tushunchasining milliy qadriyatlarga transformatsiyasi va uning naqshbandiyona mohiyati hamda O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta'minlash, milliy qadriyatlar rivojida Alisher Navoiy va Bahouddin Naqshband qarashlarining ahamiyati tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi odamiylik kategoriyasini ta'riflashda Alisher Navoiy "O'zingiz sevgan narsani boshqalarga ham ravo ko'ring" degan hadis mazmuni mohiyatini "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar nomidan bayon qilgan. Ushbu hadis mazmuni "Mahbub ul-qulub"da asarida ham o'z aksini topgan: "Har kimki birov bila yordur yoki yorig' da'vosi bordur, kerakkim, o'ziga ravo tutmag'onni yorig'a ravo tutmasa, ko'p nimakim, o'ziga ravo tutsa, anga tutmasa"²⁷. Demak, Navoiy asarlarida hadislar, Qur'on oyatlarining ma'no, mazmun mohiyatidan kelib chiqadigan qarashlari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sinkretlashuvi namoyon bo'lishi ochib berilgan.

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi "odamiylik" tushunchasi naqshbandiylikdagi "Dil ba Yor-u, dast ba kor" g'oyasining irfoniy-axloqiy mazmuniga uyg'un bo'lib, uning Movarounnahr av Xuroson xalqlari inson qadri bilan uning munosabatalardagi o'zaro insoniy aloqalar, muloqotlar, muomala, o'zaro insoniy hurmat, qadr-qimmat tushunchalariga sinkretiklik xususiyatida namoyon bo'ladi. Bu Alisher Navoiyning:

Olam ahli, bilingiz, ish emas dushmanlig'

²⁶Навоий, Алишер. Лисон ут-тайр. МАТ. Т.12. - Тошкент: Фан, 1996. -Б. 319.

²⁷ Навоий, Алишер. Асарлар. 15 томлик, 13-том, – Тошкент. Ф.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1966. –Б.55

yor o‘ling bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish²⁸,

- degan mashhur baytlariga hamohang ekanligi tadqiqotchi tomonidan asoslab berilgan.

Mutafakkir inson kamolotiga erishishning odamiylik fazilatlari sifatida karam, adab, tavozu‘, qanoat, vafo, ishq, rostgo‘ylik, halol mehnat, ilmga intilish kabilar xususida fikr yuritgan. Odamiylik fazilatlari ichida yaxshilik qilish juda muhim o‘rin egallaydi. Mutafakkir birovga yaxshilik qilib, undan umidvor bo‘lish mumkin emasligi, yaxshilik yolg‘iz Alloh yo‘lida bo‘lishi ma‘naviy qoida sifatida ta‘kidlangan.

Alisher Navoiy asarlarida futuvvat ko‘p hollarda muruvvat bilan birgalikda talqin etiladi. Demak, muruvvat tuyg‘usi futuvvatning negizini tashkil etadi. Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatning uch martabasi bor:

birinchisi - saxovat, ya‘ni bor narsani hech kimdan qizg‘anmaslik.

ikkinchisi – safo, ya‘ni qalbni kibru havo, gina-qudrat, qasd-g‘azabdan pokiza, pok tutish.

uchinchisi – vafo, ya‘ni hamma vaqt xalq xizmatida bo‘lish”²⁹.

Alisher Navoiyning naqshbandiya ta‘limotidagi ”Bozgasht” tamoyilida aks etgan “rizo” tushunchasini chuqur anglaganligi va unga amal qilganligini ko‘rsatadi. “Bozgasht” tamoyilida naqshbandiylar har bir qilingan amaldan keyin uni xolis Alloh uchun qilindimi, yo‘qmi, sarhisob qilganlar. “Iloho maqsudim Sensan va Sening rizoligingni istayman”³⁰, - deb iltijo qilganlar. Alisher Navoiy ham qilgan ehsonlarini faqat Alloh rizoligi uchun deb, bu oriflarga xos bo‘lgan amal va niyat deb hisoblagan.

Naqshbandiya ta‘limotida saxovatni insonga, qolaversa, tabiatning barcha unsurlariga yordam qo‘lini cho‘zish va bu amalni ta‘ma, riyosiz, xufiyona amalga oshirish hayotiy tamoyilga aylantirish tavsiya etiladi. Alisher Navoiy ham naqshbandiya tartib-taomiliga rioya qilgan holda saxovat ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan kishilar toifasiga, avvalambor, jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, kambag‘al-nochorlar, tolibi ilmlarni kiritgan. Bunda birdamlik, ahillik, do‘stlik, hamfikrlik masalasi ham odamiylik fazilati nuqtai nazaridan belgilanishini ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiyning asarlari umuminsoniy qadriyatlar ruhi bilan sug‘orilgan nodir manba bo‘lib, ularning negizini odamiylik g‘oyasi tashkil etadi. Demak, odamiylik – komil insonning asosini tashkil etadi. Alisher Navoiy Bahouddin Naqshband ta‘limotidagi “komil inson” kategoriyasiga “odamiylik” kategoriyasi deb baho bergan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning pirovard natijasi yoshlarning ongu-shuuri, ma‘naviyatiga, ijtimoiy faolligiga bog‘liqdir. Inson hech qachon komil bo‘lib tug‘ilmaydi yoki boshqacha qilib aytganda, birdaniga kamolotga erishmaydi. Inson komillikka erishish uchun

²⁸ Навоий, Алишер. Наводир ун-ниҳоя. МАТ. Т. 2. Тошкент: Фан, 1987. –Б 244.

²⁹ Кошифий, Хусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати / (Таржимон: Н.Комилов). –Т.: 2011. – Б. 17.

³⁰ Наврӯзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд (манбалар таҳлили). –Тошкент: Sano-standart, 2019. – 231 б.

ketma-ket kamolot bosqichlarni bosib o'tmog'i kerak. Tasavvufda bu kamolot bosqichlari maqomot, ya'ni maqomlar deb yuritiladi. Mutafakkir Navoiy o'z asarlarida Bahouddin Naqshband asoslagan naqshbandiya kamolot yo'li maqomlari haqida ma'lumot bergan.

Hozirgi kunda korrupsiya, ya'ni mehnatsiz daromadga ega bo'lishga intilish, mamlakatimizda unga qarshi kurashning huquqiy bazasi takomillashmoqda. Bunday illatni oldini olishning eng to'g'ri va maqbul usuli naqshbandiya ta'limotining nafsni tarbiyalash, halol luqma talabida bo'lish, mehnatsevarlik g'oyalarini o'ziga asos deb bilgan ma'naviy tarbiyani kuchaytirishdir. Ma'naviy tarbiyaning asosi esa milliy-ma'naviy merosdir.

Alisher Navoiy faqr masalasida o'zigacha bo'lgan barcha tasavvuf ta'limotlarini o'zlashtirishga harakat qilib "Mahbub ul-qulub"da faqrning tasavvufiy, amaliy-axloqiy jihatlarini rivojlantirgan. Faqr timsolida o'zlik, shukur, rizo, tavakkul, sabr-qanoat kabi tasavvufiy tushunchalarni bog'liqlikda talqin etdi. Uning fikricha, inson mol-mulk ketidan quvish, boylikka hirs qo'yish, kibu havo, manmanlikka berilishi kabi ijtimoiy illatlardan ustun turmog'i, kamolot sari intilmog'i darkor:

Molu mulk, har nedur solikka band,
To'rt takbiri fano urmoq baland,
Har nekim g'ayri talabdur, tashlamoq,
O'zni maqsad manziliga boshlamoq³¹.

Navoiy bu ruboiyda "O'zni maqsad manziliga boshlamoq" fikri kamolot sari intilmoq tushunchasiga hamohangdir. "Maqsad manzili" iborasi ma'naviy, axloqiy yuksalishning oliy darajasida bo'lgan naqshbandiyadagi Haqiqatga erishish, Alloh vasliga etishni anglatadi. Komil inson darajasiga yetishishning garovi nima deganda, Navoiy inson ongiga ta'sir qiluvchi illatlardan forig' bo'lish, deb uqtirgan. Insondagi yomon xislatlarni sanab, mutafakkir ma'rifatsizlik oqibatida inson o'z hatti-harakatiga baho bera olmasligi haqidagi fikrlarning mazmunini dissertant ochib bergan.

Dissertatsiyada naqshbandiya ta'limotida hayotda inson ikki holatda bo'lishi, ya'ni g'aflat va hushyorlik holatlarida ekanligi aytiladi. Bahouddin Naqshband o'z ta'limotida insonni kamolotga undashdan maqsad uni g'aflatdan uyg'otib, mushohada maydoniga kiritish deb ta'kidlaydi. G'aflat holati deganda naqshbandiyada vaqtni behuda o'tkazish, g'iybat, tuhmatga sarflash, sarxushlik, giyohvandlik holatida bo'lish, umrni qadrlamaslik tushuniladi. Demak, naqshbandiya ta'limoti hushyorlik va ogohlikka da'vat etib, hayotning har lahzasini g'animat bilishni o'rgatadi.

Bahouddin Naqshband tomonidan kiritilgan "Vuqufi qalbiy" insonning o'z qalbidan ogoh bo'lishi va qalbida doimo Alloh zikri bo'lishini nazarda tutadi. Naqshbandiyadagi ushbu tamoyilni hazrat Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida inson ko'ngli bilan insondir, deya tushuntiradi. Navoiy fikricha, qalb - ko'ngil go'yo bir idish. Inson umrining ma'nosi ana shu idishni iymon, islom, adolat, karam, (saxovat), hayo, adab, qanoat, sidqu vafo, ishq, rostgo'ylik, ilm bilan to'ldirishni

³¹Навоий, Алишер. Лисон ут-тайр. МАТ. Т. 12. –Т.: Фан. 1996. –Б.238-239.

uqtiradi. Naqshbandiya ta'limotida asosiy tushunchalardan yana biri Alloh rizoligi uchun harakat qilishdir. Rizo – Allohning har qanday sinovlariga, boshga tushgan har qanday qiyinchilikka rozi bo'lish, bundan isyon qilmaslik, xafa bo'lmaslikdir. Hazrat Navoiy tasavvufda solikning rizoligi xususida shunday deydi:

Kim faqr talab qilsa fanodur anga shart,
Boshiga nekim kelsa rizodur anga shart³².

Bundan ma'no shuki, naqshbandiyada inson hayoti davomida, komillikka erishish yo'lida har qanday mashaqqatni yengib o'tishi, buning uchun taqdiridan nolimasligi, Qur'on va Hadislarda keltirilgan Allohning taqdiriga rozi bo'lishi tushuniladi. Alisher Navoiy insonparvarlik qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, alloma sabr-qanoat, mehr-muruvvat, saxovat, xayr-sadaqa, muhtojlarga yordam kabi insoniy xislatlar haqida gapirganda ularni o'zaro bog'liqlikda ko'radi, ular mazmunan bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida qaraladi. Alisher Navoiy asarlaridagi naqshbandiya tariqati gumanistik g'oyalarining diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasi hamda bag'rikenglik madaniyati, milliy qadriyatlar rivojida xususiyatlari Yangi O'zbekiston jamiyatidagi islohotlarni amalga oshirishda xizmat qiladi. Alisher Navoiy asarlarida naqshbandiyona g'oyalar yosh avlodni imonli, halolu pok, mehnatsevar, kamtarin, saxovatli, ogohu hushyor, bag'rikeng qilib tarbiyalashning yo'llarini o'rgatuvchi asosiy manbadir.

Tadqiqotchi odamiylik fazilatlari ichida nafsni tiyish juda katta o'rin egallashini asoslagan. Biroq inson o'z nafsidan to'la to'kis voz kecha olmaydi. Bu faqat farishtalarga xos. Inson nafs tuzog'iga tushib qolsa, insoniyligini yo'qotadi. Qur'oni karimda nafs xususidagi oyatlar bor. Tasavvuf vakillari Alloh kitobiga tayangan holda, nafsning quyidagi talqinlarini shakllantirdilar: “nafsi ammora” – bu amr qiluvchi nafs; “nafsi mulhama” – gunohga ham, taqvoga ham undovchi nafs; “nafsi lavvoma” – malomatchi nafs; “nafsi mutmainna” – xotirjam nafs shular jumlasidandir.

Navoiy inson ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan bosqichlarni sunna, ma'rifatchilik, tasavvuf irfoni misolida tushuntirishga harakat qiladi. Sunna bu islomiy ibodatlar, islom axloqidir. Ma'rifatchilik bu mantiqiy tafakkurga tayanishdir. Tasavvuf irfoni esa tariqat maqomi va hollari, pir irshodi, riyozat bilan Haq vasliga erishish, shu yo'l bilan poklanish hisoblanadi. Ushbu yo'llarni tushuntirishda mutafakkir odamiylik mezonlariga juda katta e'tibor qaratadi. Alisher Navoiy inson kamolotiga erishishning odamiylik fazilatlari sifatida karam, adab, tavozu', qanoat, vafo, ishq, rostgo'ylik, halol mehnat, ilmga intilish kabilar xususida fikr yuritadi.

Alisher Navoiy odamzodning maqsadi va diqqat e'tiborini ulug' maqom hamda darajani egallashga qaratib, foni olamdan o'tmasdan turib, o'z tabiati va axloqini turli illat, yaramas fe'l-atvordan poklab olishi kerakligi xususida ogohlantiradi. Bu ruhiy-ma'naviy poklanish hisoblanadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Naqshbandiylik tarkidunyochilik, go'shanishinlikni inkor qildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, u odamlarni faol hayot tarziga, hamjihatlikka, kasb-kor egallash, halol rizq-nasiba topishga asoslangandir. Bunday insonparvar g'oyalar “zikr” amaliyoti bilan uyg'unlashib, “Dil ba Yor-u,

³²Навоий, Алишер. Хазойин ул-маоний. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2016. –Б. 178.

dast ba kor” tamoyilining irfoniy-falsafiy asoslarini yanada mustahkamladi. Boshqacha qilib aytganda, kishini nomigagina ibodat qiluvchi (obid) emas, uni o‘zini anglay olgan, Allohni unutmagan ma’naviy yetuk, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda faol shaxsni shakllantirish usullarini ishlab chiqdi

XULOSA

Alisher Navoiy ma’naviy merosida naqshbandiya ta’limoti mazmuniga oid g‘oyalarni tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelingan:

1. Alisher Navoiy temuriylar davrining madaniy yuksalishi, o‘zbek tilining uzil-kesil qaror topishida ulkan hissa qo‘shgan so‘z mulkining sultoni, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va o‘z davri hamda keyingi davr insoniyat jamiyati ravnaqi, ma’naviy tiklanish uchun asos bo‘lib kelgan. Mutafakkir serqirra merosini o‘rganish, ayniqsa, uning olam va odam, Yaratuvchi va inson, tabiat va jamiyat, haqidagi fikr hamda g‘oyalari yangi ma’rifatli jamiyat barpo etishda, uning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlashda muhim fundamental asos bo‘lishiga shubha yo‘q.

2. Mahalliy va xorijiy navoiyshunos olimlarning izlanishlarida Navoiy merosi uning gumanistik mohiyati o‘z ifodasini topgan. Biroq allomaning serqirra ma’naviy merosidagi falsafiy-irfoniy qarashlarining naqshbandiya ta’limotiga hamohangligi, namoyon bo‘lish xususiyatlari, uning g‘oyaviy ildizlari insonparvar maqsadlarga yo‘naltirilgan konstruktiv g‘oyalari Movarounnahr va Xuroson xalqlarini ruhan jipslashtirishga, umuminsoniy qadriyatlarining sinkretiklashuvida ma’naviy omil bo‘lgan. Shu jihatdan uni o‘rganish bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Alisher Navoiyning naqshbandiya tariqatiga mansublik maqomi darajasi, Bahouddin Naqshband idealiga munosabatiga qaratilgan fikrlarning xilma-xilligi navoiyshunoslikda hali tadqiqot ishlari ko‘lami yanada kengayishini taqozo etadi. Zamonaviy jamiyatda diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasini ta’minlash, milliy qadriyatlarni boyitish, ma’naviyatimiz ildizlariga yetib borishimiz uchun ham Navoiy merosi dolzarabligini saqlab qolmoqda.

4. Alisher Navoiy naqshbandiylik yo‘lini “tariqati oliya”, “qanoat tariqi”, “faqr yo‘li” sifatida tavsiflab, uning ahli sunna va jamoa e’tiqodidagi sof ta’limot, komillikning mukammal tarbiya maktabi ekanligi uqtirgan. Ibn Arabiy “vahdat ul-vujud” ta’limotining ma’rifatini anglagan holda “naqsh” ham, “naqqosh” ham, “manqush” (naqshlangan) ham Haq ekanligi, U butun olamlarning yaratuvchisi degan falsafiy-irfoniy qarashlarini bayon qilgan. Bu naqshbandiya tariqatining temuriylar davridagi mavqeini oshirishga, irfoniy negizlarini, ontologik asoslarining takomillashishiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan.

5. Alisher Navoiyning borliq xususidagi qarashlari olam, borliq, jamiyat bilan bog‘liq masala va muammolarda mutaassiblik, zohidlik tarafdori bo‘lmasdan, irfoniy, ma’rifiy qarashlar va harakatlar tarafdori bo‘lganligi ham uning naqshband g‘oyalari uchun fikrlarini asoslagan. Alisher Navoiy olamni, borliqni bilish, anglash, u haqda fikr yuritish, tafakkur kuchi bilan o‘z imkoniyati darajasida o‘zgartirish faqat insonga xos fazilat bo‘lib inson bu faoliyatni ungagina berilgan tafakkur qudrati bilan amalga oshira olishiga ishongan.

6. Alisher Navoiyning gnoseologik qarashlarini inson sezgilari bilan umumiylik kasb etgan, ko'ngil, xotira, fikr, fahm, did-farosat, nafs, idrok kabi bashariy sifatlar falsafiy-irfoniy tarzda bayon qilingan buni inson sezgilari va bilish jarayoniga tegishli ilmiy xulosalar sifatida qabul qilish mumkin. Ko'ngil va tafakkurni mir'ot – ya'ni olamni o'zida aks ettiradigan oyna, ko'zgu tarzida ifodalanishining mohiyatida ham namoyon bo'lgan.

7. Alisher Navoiy dunyoqarashining naqshbandiyona ildizlari uning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror” asarlarida ilgari surilgan “ixlos”, “hayrat”, “tavhid” g'oyalarining “borliqning birligi” (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) tamoyillariga transformatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. O'rta asr temuriylar davri falsafasida bu Navoiy qarashlarining naqshbandiya tariqatining diniy-irfoniy g'oyalariga hamohangligi nuqtai nazaridan o'ziga xos irfon falsafasining rivoj topishga muhim hissa bo'lib qo'shilgan.

8. Alisher Navoiy qarashlarida vaqt – azal bilan abad, abadiyat orasidagi umumiy davr oqimi sifatida ta'riflanib, makon va undagi narsalar bilan birga hukmi Haq irodasiga bog'liq. Shu bilan birga Navoiy vaqt masalasini dunyoviy tusda baholagan hamda borliqning yashash shakli bo'lgan zamonning ham makonning ham ajralmasligi uning samarasi inson manfaatiga xizmat qilishi insonparvarlik, axloqiy, falsafiy aspektda bayon qilgan.

9. “Odamiylik” tushunchasi naqshbandiya tariqatidagi “Dil ba Yor”, “Dast ba kor” tamoyilining inson mukammaligi (moddiy-va ma'naviy barkamolikka erishish tamoyili) mazmunini anglatib, uning milliy qadriyatlarga sinkretiklashuvi Alisher Navoiy ma'naviy merosining insonparvarlik mohiyatini tashkil etadi. Bu gumanistik qarashlar o'z davri va keyingi davrlardagi targ'ibotda muhim rol o'ynagan.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvufiy, ayniqsa, naqshbandiya tariqati g'oyalarini ifodalovchi tushuncha va istilohlarining elektron izohli lug'atini yaratish;

2. “Alisher Navoiy naqshbandiyona g'oyalarining namoyon bo'lishi xususiyatlari va hozirgi zamon” o'quv kursini diniy-ma'rifiy sohada mutaxassislar tayyorlovchi ta'lim muassasalari dasturiga kiritish va ularning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish;

3. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tayyorlanadigan “Yo'l xaritalari” rejalariga Alisher Navoiy komil inson g'oyasining naqshbandiya ta'limotiga uyg'unligi va bunyodkor g'oyalaridan foydalanishga oid vazifalarni kiritishsh;

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari hamkorligida “Naqshbandiya tariqati o'ziga xos tomonlarining Alisher Navoiy asarlaridagi tahlili” mavzuida ilmiy-nazariy anjumanlar tashkil qilish;

5. Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi naqshbandiyona qarashlar tahlilini ingliz, fransuz va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilib, qo'llanmalar tayyorlash.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2020.F.72.08
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ПАРДАЕВА МАРХАБО ДАВЛАТОВНА

**ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О СУЩНОСТИ УЧЕНИЯ НАКШБАНДИЯ В
ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ**

09.00.03 – История философии

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSC) по философским наукам

Бухара – 2023

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.3.DSc/Fal139.

Диссертация была выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.buxdu.uz) и на информационно-образовательном портале «Zionet» (www.zionet.uz).

Научный консультант:

Наврүзова Гульчехра Негматовна
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сафарова Нигора Олимовна
доктор философских наук, профессор

Махмудова Гули Тилабовна
доктор философских наук, профессор

Исакова Замира Рухитдиновна
доктор философских наук, доцент

Ведущая организация:

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится « 25 » декабря 2023 г. в « 10⁰⁰ » часов на заседании разового Научного совета PhD.03/27.02.2020.F.72.08 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (65) 221-29-14; факс: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирован под № 400). (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (65) 221-25-87.)

Автореферат диссертации разослан « 13 » декабря 2023 года.

(Протокол реестра № 29 от 13 декабря 2023 года)



Шадманов К.Б.

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор философских наук, профессор

Шарипов А.З.

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор философских наук, профессор

 **Шарипова О.Т.**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней,
доктор философских наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Наблюдаемые во всем мире геополитические напряжения и конфликты, религиозная нетерпимость и исламофобия в некоторых странах требуют широкого продвижения идей межрелигиозной толерантности и согласия. Исследование богатого наследия великих просветителей и мыслителей, великих учёных, внесших несравненный вклад в развитие мировой науки, показавших ислам как религию знания, просвещения и мира, глубокое раскрытие истинной гуманитарной сущности ислама – это более чем когда-либо ставится на повестку дня. В частности, особенно важным является раскрытие характерных для учения Накшбандия идей в ирфон-философском мировоззрении Алишера Навои, его синкретических особенностей в феномене «человеческой ценности», интеграции религиозных и мирских ценностей гуманистических идей и синкретических особенностей в развитии культуры толерантности и национальных ценностей.

В мировой науке и научно-исследовательских центрах проводятся фундаментальные и инновационные исследования по трансформации исторического опыта совершенствования межэтнических и межрелигиозных отношений, устранения идей и концепций, угрожающих национальной стабильности, толерантности и единству. Большое значение имеют идеи тариката Накшбандия, занимающей особое место во всемирном продвижении идей межрелигиозной толерантности и солидарности, глубоком раскрытии истинной гуманитарной природы ислама. С этой точки зрения возрастает необходимость исследования развития учения Накшбандия в творчестве Алишера Навои, места синкретизации религиозных идей в национально-религиозные ценности в гармонии с общечеловеческими ценностями и современными знаниями.

В нашей стране проводятся реформы, связанные с построением свободного, процветающего, могучего Нового Узбекистана, воспитанием здорового, образованного и духовно совершенного поколения, глубокого и всестороннего изучения наследия наших великих мыслителей, просветителей и духовных наставников, воспитания просвещённых их идеями людей в соответствии с духом времени. «Уникальное и неповторимое научное и духовное наследие наших великих предков должно стать для нас живой программой, находящейся в постоянном движении. Это бессмертное наследие должно всегда быть с нами и всегда давать нам силы и вдохновение. Прежде всего, нам необходимо наполнить таким духом национальную систему образования. Для этого необходимо, чтобы наши учёные и специалисты, уважаемые религиозные деятели донесли это духовное сокровище до сегодняшнего поколения в простых и понятных, привлекательных формах»¹. С этой точки зрения, приобретает особо важное значение научно-творческое наследие Алишера Навои, сформированное на

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2022. – Б. 223.

основе гуманитарных целенаправленных идей тариката Накшбандия, особенности его национально-религиозных ценностей и синкретизма, идеалов, призывающих людей к совершенству, побуждающих молодых людей быть социально активными, приобретать профессию, иметь твердые убеждения, быть решительными и раскрыть нравственно-воспитательную роль в расширении философского наблюдения и конструктивного значения философско-этических взглядов в развитии учения Накшбандия.

Настоящая диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, намеченных в Указах за №УП-158 от 11 сентября 2023 года Президента Республики Узбекистан «О стратегии «Узбекистан – 2030», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сферы образования и науки в новый период развития Узбекистана», №УП-6255 от 1 июля 2021 года «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по борьбе с экстремизмом и терроризмом на 2021-2026 годы», Постановлении №ПП-3080 от 23 июня 2018 года «О мерах по созданию Центра исламской цивилизации в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», №ПП-3907 от 14 августа 2018 года «О мерах по воспитанию молодых людей духовно, нравственно и физически совершенными, а также по поднятию качества их системы образования на новый уровень», №ПП-5040 от 26 марта 2021 года «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы», Постановления №ПП-4865 от 19 октября 2020 года «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», а также определенных в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации².

² См.: Никитский М. “Эмиръ-Низам-эд-Динъ Али-Шир в государственном и литературном его значении”. – СПб: - 1856.; Ahmed-Vefik-Efendiet de Be 1 in. Mahbub-ul-kulub. Publi, dans le texte original. - Constantinople, 1872-1873./ Journal Asiaticque. T 7, 8. Ajbegf. Ali Cher Navoi. Kfoskou, 1948. Ali Asohar Hekmet. The Magolis-un Nafais Mir Ali Shir Navai. Teheran, 1945. Levend A.S. Ali Shir Navoi. I Gilt. Ankara, 1965. Vambery H. Die primitive Kultur der Turko-Tatarischen Volker. Leipzig, 1879. Hinz W. Herat unter Husein Baigaradem Timuriden (Abhandlungenfür Kunde des Marqenlanas. Bd. 28) «Leipzig» 1938. Hammer-Purgstal1. Arabisehe, persisehe und türkische Handschriften. Wien, 1840. Courteille P. Mémoires de Bater (Zahir-et-Din Shammed) Fondateur de la dunastiemongoledans Hindostan. Paris, 1871. Nemati Limai, Amir (2015), Analysis of the Political life of Amir Alishir Navai and Exploring his Cultural, Scientific, Social and Economic Works, Tehran & Mashhad: MFA (Cire) & Ferdowsi University. – P. 56-59.; Также представлен обзор зарубежных исследований по теме диссертации на основе подготовленных электронных ресурсов <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <http://www.azhar.edu.eg/en/>; <https://www.nottingham.edu.my/index.aspx>; <https://khalilcenter.com/ramadan>; <https://www.timeshighereducation.com/world-universityrankings/sorbonne-university>

Гуманистическое наследие мыслителя Алишера Навои всегда интересовало ученых и специалистов мира. В частности, методологически значимы исследования такого зарубежного востоковеда, литературоведа как М. Никитский, турецких учёных А. Вагифа, Аджбега, А. Хикмета, Н. Вея, французских востоковедов С. Саси, Л. Буве, немецкого востоковеда В. Бафта, К. Экманн, В. Хинца, Х. Вамбери, А. Шакирзода, А. Левенда, английских учёных Э. Гибб, Х. Пругстал, П. Кортелли, канадца Г. Дика, иранца Н. Л. Амира.

Исследования «Учение Ходжагон-Накшбандия после Бахауддина Накшбанди» Юргена Пауля, трактаты доктора Метина Аккуша «Вопрос человека в творчестве Навои как исторической и литературной личности», исследования российского ученого А. Кныша, Г. Эскарханова, иранца Мохаммада Амина Рияхи представляют собой историко-культурные, философские и филологические исследования наследия Алишера Навои, имеющие уникальное методологическое значение. Трехтомный словарь «Энциклопедия ислама», изданный в Германии, изданный в России «Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритц Майера» важны для раскрытия тариката Накшбандия и ее исторической, научной и религиозно-философской сущности. В монографических исследованиях Р. Николсона, С. Эрнста, Т. Хусейна, С. Нафиси, А. Мец, И. Ю. Крачковского, Б. Фурозонфара, Е. Э. Бертельса, Дж. Нурбахша, А. Куделинс сформулированы проблемы, обобщения и выводы по теме исследования³.

Также, фундаментальные исследования проводят ведущие мировые научные центры и высшие учебные заведения о духовном наследии Накшбандия и Алишера Навои, тасаввуф и истории тарикатов, в частности, Centre International investergate of Oxford University, School of Culture, religions and politicu in Asia (Великобритания), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Германия), Islamic Supreme Council of America, (ISCA-Высший исламский совет Америки), Al-Azhar university (Египет, Каир), Санкт-Петербургский государственный университет (Российская Федерация), The George Washington University, Centre of scientific investigation of Central Asia (США), University of Western Ontario (Канада), Institute of Central Asia (Франция), Institute of International relation (Швеция), Disle university (Турция), также, Международная исламская академия Узбекистана, Центр исламской цивилизации в Узбекистане, Бухарский государственный университет (Узбекистан).

С учетом вышеизложенного, данные исследования, проводимые узбекскими и зарубежными исследователями по изучению учения

